

AYOL-MILLAT TAYANCHI



Isroilova Mahbubaxon Axmatovna

Andijon shahar pedagogika kolleji maxsus fanlar kafedrasida o'qituvchisi.

Annotatsiya: O'zbek zamonaviy ayoli — ta'lim olib, kasb egallayotgan, xizmat darajasi pillapoyalardan ko'tarilib, mamlakat va jamiyat hayotida bevosita ishtirok etayotgan ijtimoiy faol shaxs. Oila va yurtimizda hukm surayotgan tinchlik, osoyishtalik, yaqinlarining salomatligi, baxt-saodati xotin-qizlarning ertangi kunga ishonchini oshirib, kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillardandir.

Kalit so'zlar: O'zbek zamonaviy ayoli, oila, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, gender tengligi, oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar.

Аннотация: Современная узбекская женщина – это социально активный человек, который получает образование, приобретает профессию, поднимается по служебной лестнице, принимает непосредственное участие в жизни страны и общества. Мир, спокойствие, здоровье и счастье близких в семье и нашей стране – основные факторы, повышающие уверенность женщин в завтрашнем дне и положительно влияющие на их настроение.

Ключевые слова: современная узбекская женщина, семья, общественно-политическая активность женщин, гендерное равенство, духовно-нравственные ценности в семье.

Annotation: A modern Uzbek woman is a socially active person who receives education, acquires a profession, rises from the ranks of the service level, and directly participates in the life of the country and society. The peace, tranquility, health and happiness of loved ones in the family and our country are the main factors that increase women's confidence in the future and have a positive effect on their mood.

Key words: modern Uzbek woman, family, socio-political activity of women, gender equality, spiritual and moral values in families.

KIRISH

Ayol bir qo'lida beshikni tebratsa, bir qo'lida dunyoni tebratadi. Darhaqiqat, ushbu so'zlar zamirida bir olam ma'no bor. Ayol shundayin xilqatki, u dunyoni larzaga

soluvchi, qalblarni to‘lqinlantiruvchi, olamni hayratga soluvchi va daryo suvlaridek qalblarga mehr nuri ulashuvchi tabiatning betakror mo‘jizasidir. Ayol sabri va qudrati oldida tog‘lar ham ta‘zim qiladi. Ayol mehri olamni tutib turadi. Ayol muhabbati — hayot mazmuni. Ayolni asrash, e‘zozlash kerak. Siyosiy faol fuqaro, tadbirkor, tibbiy savodxon va ma‘naviyatli ona, iqtisodiy bilimlar egasi bo‘lgan rafiqa – mana bu zamonaviy va ilg‘or xotin-qizlarning portretiga qisqa ta‘rif. Zukko qizlarimiz, oqila va fozila opa-singillarimiz esa fan, san‘at, madaniyat va sportda yuqori marralarni zabt etishyapti. Bugungi kunda xotin-qizlar jamiyatning barcha jabhalarida, jumladan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimi, sanoat va qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va aloqa sohalarda samarali faoliyat olib bormoqda. Ayniqsa, istiqloldan keyin Ayollarning davlat va jamiyat hayotida integratsiyalashuvi yangi bosqichga chiqdi. Keyingi yillarda respublikamizda eng quvonarlisi, xotin-qizlar og‘irini engil qilish, ularning hayot sharoitini yaxshilash, oila va jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash kabi vazifalar ustuvor vazifalardan biri hisoblanmoqda. Ular nafaqat navqiron avlodni tarbiyalash, sog‘liqni saqlash sohasida, balki sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, xalq farovonligini oshirish yo‘lida ham salmoqli hissa qo‘shib kelmoqdalar. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoyalash va ularni davlatimiz ijtimoiy-siësiy hayotidagi faolligini oshirishga etibor berilgan. Va ushbu belgilangan vazifalarni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning —”Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi farmoni Ayollarimizning o‘z qobiliyatlarini namoyish etishlariga yanada keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Aziz onajonlarimiz, zukko opalarimizni e‘zozlab, ”Mo‘t‘abar ayol” ko‘krak nishoni ta‘sis etildi. Bu opa-singillarimiz, munis onajonlarimiz zahmatli mehnatlarining yuksak e‘tirofidir. Bugungi kunga qadar bir qancha iste‘dodli qizlarimizning jamiyatda o‘z munosib o‘rinlarini topishiga yordam bergan “Zulfiya” mukofotiga ham bir qancha o‘zgartirishlar kiritildi. Endi Zulfiya nomidagi davlat mukofoti o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan iqtidorli qizlarga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan ikki nafar talabgorga berilishi belgilandi. O‘z navbatida, yosh chegarasining uzaytirilishi ko‘pgina salohiyatli, ilmiy izlanishlar qilayotgan qizlarimiz uchun ham yana bir imkoniyat va imtiyoz bo‘ldi. Jamiyat rivojini xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Adolatli jamiyatda ayol huquqi eng oliy, eng muqaddas hisoblanadi. Ayol huquqi, uning erkinligi, tengligi eng muhim masalalardan biri sanaladi. Xotin-qizlarimizning jamiyatda tutgan o‘rni va haq-huquqlari haqida juda ko‘p gapirish, bahs-munozara qilish mumkin. Ayol hamisha hayotimizning har bir bo‘g‘inida bizga insoniylik, mehr-muhabbat tuyg‘ularidan saboq beradi. Xotin-qizlar kamchilikni tashkil qiladigan tarmoqlarda yuqoridagi sanab

o‘tilgan kamchiliklar ko‘proq uchrayotganini ham qayd etish lozim. Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalaridagi holatini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat, Oila kodekslari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, umuman, barcha me‘yoriy hujjatlar bevosita ayollar huquqlari, manfaatlari va erkinliklarini himoya qilishga aloqadordir. O‘zbekiston ayollar huquqini xalqaro meyor va huquqiy standartlarga muvofiq ta‘minlash maqsadida ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini bekor qilish haqidagi konvensiyaga, ayollarning siyosiy huquqlari va onalikni muhofaza qilish haqidagi konvensiyalar hamda ayollar huquqi bo‘yicha boshqa xalqaro hujjatlar qo‘shildi. Ayol-qizlarni har taraflama himoyalash va ularni, eng avvalo, jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lmish oila deb atalmish muqaddas qo‘rg‘onga tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Jamiyat rivoji, uning har tomonlama barkamol, etuk bo‘lishini ayollarning intellektual salohiyatini rivojlantirmasdan turib, tasavvur etish mushkul vazifa. Ayolning saviyasi, madaniyati baland, ma‘naviyati yuksak bo‘lsa, kelajak avlod tarbiyasi ham joyida bo‘ladi. Kelajak vorislarining etuk inson, barkamol avlod sifatida shakllanishi oila muhiti, ayoldan boshlanadi. Nafaqat bizning mentalitetda, balki sharqda oila muhiti, turmush tarzini ayol yaratadi. Ayollarga izzat-ikrom ko‘rsatish, uni ardoqlash, og‘irini engil qilish millatimizga xos fazilat va ming yillik qadriyatimizning tayanch ustunlaridandir. Zero, oiladagi totuvlik, jamiyatdagi barqarorlik, yurtdagi osoyishtalikni saqlab turishda ham ayol zotining o‘rni bor. SHarq ayoli har tomonlama farzandlari uchun o‘rnak bo‘ladi. CHunki farzand ko‘zlarini ilk bora ochib, yorug‘ dunyoni ko‘rar ekan, birinchi bo‘lib, onasini ko‘radi, ilk mehrni ona allasidan oladi. Otalar ko‘proq oilaning moddiy taminoti bilan band bo‘lganlari sababli ayol oila baxt-saodati tayanchi, farzandlar tarbiyasini amalga oshirishda sinalgan ko‘makchidir. Ayol tufayli oila baxt-saodatga erishadi, tarbiyasi ma‘qul farzandlardan ulug‘ zotlar etishib chiqadi. Farzandlar yillar davomida onasining har bir harakatlaridan o‘rnak oladi. SHu sababli oilada qiz farzandlar tarbiyasiga yanada ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Oila ham aslida kichik bir mamlakat. Uning ichki qonun va qoidalari bor. Ushbu masalada bir qator tizimli muammolar uchrab turibdi va ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash borasida chora-tadbirlar yaratish muhim o‘rin tutadi. SHu o‘rinda alohida ta‘kidlash joizki, “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazining yaratilishi va uning negizida asosiy vazifalar sirasiga “Sog‘lom oila sog‘lom jamiyat” konseptual g‘oyasini hayotga tadbiq etish, zamonaviy namunali oila me‘zonlarini belgilash, “Oila jamiyat va davlat himoyasida” konstitutsiyaviy prinsiplari kiritilgan. Ayollar qadr-qimmatini, sha‘ni haqida so‘z borar ekan, ular har sohada o‘z o‘rni va huquqlarini bilishlari lozim. Bu

nafaqat yuridik jihatdan, balki boshqalar oldida o'zini tuta bilish, muomala odobi kabi fazilatlarni ham mujassamlashtirishni ko'zda tutadi. Agar yuqoridagi fikrlarning mohiyatiga nazar soladigan bo'lsak, sharq ayoli azaldan o'z haq-huquqini chuqur bilganini biz To'maris, Bibixonim, Nodirabegim singari momolarimizning haq-huquq, siyosat bobidagi etuk salohiyatini tarixiy manbalardan ham yaxshi bilamiz. Bugungi o'zbek ayolini ularning munosib davomchilari deb g'ururlanish mumkin. Hayotning har jabhasidagi ular erishayotgan yutuqlar kishi ko'zini quvontiradi va g'urur mamnunlik hissini uyg'otadi. Biroq hech qaerda bitilmagan, kitoblarda yozilmagan, faqat o'zimizga, milliylikimizga xos bo'lgan bir fazilat borki, bu ibo-hayodir. Bu borada o'zbek ayolini ta'riflashga so'z ojizdek tuyuladi. Qalb va huquq qaysidir ma'noda bir-birini rad qiladigan tushunchaga o'xshaydi, aslida esa bu ikki tushuncha bir-birini to'ldiradi. O'zbek zamonaviy ayoli — ta'lim olib, kasb egallayotgan, xizmat darajasi pillapoyalaridan ko'tarilib, mamlakat va jamiyat hayotida bevosita ishtirok etayotgan ijtimoiy faol shaxs. Oila va yurtimizda hukm surayotgan tinchlik, osoyishtalik, yaqinlarining salomatligi, baxt-saodati xotin-qizlarning ertangi kunga ishonchini oshirib, kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillardandir. Masalan, Abdurauf Fitrat "Oila" asarida "Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi milliy ozodlik, erk uchun zarur: ayollar faqat uy-ro'zg'or bilan, bola tarbiyasi bilan band bo'lib qolmasligi, ularning Evropadagi kabi siyosatda qatnashishlari o'rinlidir", degan fikrni ilgari suradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlatimizda ayollarga oila va jamiyatda o'z munosib o'rnini topishida juda katta islohotlar amalga oshirildi. Ayol huquqlari bo'yicha qonunchilik bazasi shakllantirildi. Xotin-qizlar masalasi yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ayolga ehtirom ko'rsatish uni ezozlash — millatga, vatanga, ertangi kunga, kelajak avlodlarga ehtirom ko'rsatishning bosh mezoniga aylandi. O'zbekistonda bugungi kun zamonaviy ta'limining gender tengligiga erishishda o'ziga xos roli mavjud bo'lib ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish bilan bog'liq bir qator dasturlar, qonun hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilinib, gender tengligi bo'yicha milliy strategiyani qabul qilish rejasi ham mavjudligi ta'kidlangan.

Gender tengligi inson huquqlarining asosiy printsiplari va har qanday adolatli va ilg'or jamiyatning asosidir. U jamoat sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, oilada o'zaro gender tengligiga erishish doimiy muammo bo'lib qolmoqda. Demokratik davlatda esa xotin-qizlarning haq-huquqlari davlat himoyasida va gender tengligi mavjud. Demokratik davlat bo'lmish vatanimiz O'zbekistonda ham xotin-qizlarning huquqlari, qadr-qimmatini ulug'lanadi va ular uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Davlatimizda oilani mustahkamlash, xotin-qizlarga zo'ravonliklarni oldini

olish maqsadida bir qancha qonunlar, qarorlar qabul qilindi, oila institutlari yaratildi. Misol uchun “Oila kodeksi”, “xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi prezidentimiz 2022- yil 7-martdagi farmoni bunga misol bo‘ladi. Mazur farmonga asosan, Vazirlar mahkamasi huzurida “Oila ilmiy-amaliy tadqiqot markazi oila instituti sohasida yagona davlat siyosatini yurituvchi tizim sifatida tashkil etildi. Markazning asosiy vazifasi: davlat va jamoat tashkilotlari, parlament siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini O‘zbekiston oilalarini mustahkamlash g‘oyasi atrofida birlashtirish, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirib borish, mamlakatda faqat sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat ustuni bo‘la olishini aholi ongiga singdirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish orqali oila institutini mustahkamlash etib belgilangani mamlakatimizda bu borada mutlaqo yangi bosqichdagi sa’y-harakatlar boshlanganidan dalolat beradi. Yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, shubhasiz, bugun dolzarb masalalardan biridir. Bu masalani ma’naviyati yuksak onalarning ishtirokisiz yechib bo‘lmaydi. Chunki, farzandning ilk tarbiyachisi uning onasidir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ayollarga munosib turmush sharoitini yaratish, ular haqida g‘amxo‘rlik qilish, qonuniy manfaatlari, huquqlarini ta’minlash davlatimiz siyosatining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Keyingi yillarda qabul qilingan aksariyat qonun, farmon va qarorlar ayolni qadrlashga, e’zozlashga, ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

2018 yilning 2 fevral kuni davlatimiz rahbari tomonidan “Xotin- qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5325-son Farmoni imzolandi. Mazkur hujjatga muvofiq, barcha fuqarolar yig‘inlarida xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etildi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishning yangi bosqichida ya’ni Sh.M. Mirziyoyovning prezident lavozimiga saylanishi bilan taraqqiyotning yangi davri boshlandi, jumladan ayollar ijtimoiy himoya qilish, ularni qo‘llab-quvvatlash va muhofazalashga davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jumladan, qator ishlar amalga oshirildi, bular:

Birinchiidan, yurtimizda ayollar bandligini oshirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda ish o‘rinlari yaratishga yo‘naltirilgan keng qamrovli va diversifikatsiyalangan (lot. diversificatio-o‘zgarish, xilma-xil taraqqiyot korxonalarining faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi) iqtisodiy rivojlanishga kirishildi;

Ikkinchidan, ayollarning huquqiy statusi va maqomini ta'minlashga oid qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekistonning qonunchilik mexanizmlari, jumladan, fuqarolik, jinoyat, mehnat va oila kodekslari, milliy qonunchiligimiz gender tengligi tamoyillariga va xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda;

Uchinchidan, ta'lim va ayollarning professional, ayni damda funksional savodxonligini oshirish, xususan qishloq joylarda yashaydigan xotin-qizlarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash, daromad keltiruvchi faoliyat turlarida xotin-qizlar tashabbuslari rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek, namunali arzon uy-joylar bilan ta'minlash maqsadida foizsiz kreditlar berilishi, boshlang'ich badal pullarini to'lashdagi imkoniyatlar, soliq to'lovlarida yengilliklar berilishi ayollarni qo'llab-quvvatlashda davlat siyosatining namoyon bo'lishidir;

To'rtinchidan, an'anaviy gender munosabatlari, garchi ular rasmiy qonunlar yoki strategiyalar, mexanizmlarda belgilab qo'yilmagan bo'lsa-da, oila va jamiyatda ayollar va erkaklar uchun ijtimoiy rollar belgilangan bo'lib, xulq-atvor qoidalari, mehnat funksiyalari, qadriyatlar, ayollar va erkaklar uchun majburiyatlar belgilab qo'yilgan, ular bu majburiyatlarni so'zsiz bajarishga harakat qiladilar. Ayollarni qo'llab-quvvatlash va oila institutlarini mustahkamlash sohasidagi tadbirlarni tubdan takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar, xotin-qizlarga beriladigan ijtimoiy imtiyozlar va ulardan samarali foydalanish texnologiyalari, gender tenglik muammolarini hal qilishdagi tizimli yondashuvlar bevosita ayol huquqlarining muhofazasi, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlanishiga qaratilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/docs/10550>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni <https://lex.uz/docs/3546742>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori <https://lex.uz/docs/3588155>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 07.03.2019 yil PQ-4235- sonli qarori <https://lex.uz/docs/4230944>.
5. 2017 yil – shiddatli islohotlar yili / Taraqqiyot strategiyasi / – T.: "Adolat", 2017. – B. 78.
6. Qomus. Info. Online encyclopedia <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/diversifikatsiya-uz/>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 07.03.2019 yil PQ-4235-sonli qarori <https://lex.uz/docs/4230944>.

